
RASMIY MUNOSABAT



Ijtimoiy tarmoqlarda Farg'ona shahridagi Neftchi stadionida metan zapravka qurishga ruxsat bergani haqida maqola e'lon qilindi.

Shunga ko'ra, maqolada keltirib o'tilgan vajlar yuzasidan Farg'ona shahar hokimligining mas'ullari masalani atroflicha o'rganib, quyidagilarni ma'lum qiladi:

Farg'ona viloyati "So'x Orom" xususiy korxonasi tomonidan Farg'ona shahar, Marg'ilon ko'chasida joylashgan bo'sh yer maydoniga avtomobillarga gaz to'ldirish kompressor shahobchasi va elektromobillarni elektr bilan quvvatlash shahobchalari kompleksi qurish ishlari amalga oshirilmoqda. Yangi qurilayotgan ushbu ob'ekt O'zbekiston Respublikasining Sanitariya me'yori va qoidalari 0350-17 6.4-bob, 1U-klass, 15-bandi talablariga binoan atrofidagi eng yaqin bino-inshoot oraliq masofasi 200 metrni tashkil etadi. Shuningdek, bino va inshootlar ShNQ (Shaharsozlik norma va qoidalar) 2.09.20-08 talablari asosida joylashtirilgan.

Ushbu avtomobillarga gaz to'ldirish kompressor shahobchasi va elektromobillarni elektr bilan quvvatlash shahobchalari kompleksi xususiy tadbirkorga tegishli bo'lib, internetda aytilgan gaplar yolg'on.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#)

2021-08-30 20:08:32